

Mirzakalon Ismoiliy (1908-1986)



Mirzakalon Ismoiliy (1908-1986)



Taniqli adib, mohir tarjimon Mirzakalon Ismoiliy 1908 yil 15 oktyabrdagi Qirg'izistonning O'sh shahrida dunyoga keldi. Oktyabr to'ntarishidan so'ng u bolalar uyida tarbiyalandi. Toshkentga kelib, Erlar bilim yurtida ta'lif oldi. 1928—1930 yillarda O'rta Osiyo Davlat universitetining Sharq fakultetida o'qidi, o'qituvchilik qildi.

Toshkent kinostudiysi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, «Qizil O'zbekiston», «Sharq yulduzi» muharririylarida hamda O'zbekiston Davlat nashriyotida xizmat qildi. U rus adabiyoti namoyondalaridan M. Yu. Lermontov, L. N. Tolstoy, A. P. Chexov, M. Gorkiy, M. A. Sholoxov kabilarning 200 dan ortiq asarlarini hamda jahon adabiyoti namunalaridan ko'plarini o'zbek tiliga o'girdi. Uning tarjimalari o'zbek tilining rivojlanishiga katta hissa bo'lib qo'shildi.

Yozuvchining 1927 yilda bosingan «8 Mart» pesasida o'zbek xotin-qizlarining ozodlik uchun kurashi aks etgan. U 1942—1947 yillarda Armiya safida xizmat qilib, fashizmga qarshi kurashda jonbozlik ko'rsatgan.

Adib urushdan keyingi yillarda yaratilgan «Farg'ona tong otguncha» (1958, 1967) trilogiyasida Oktyabr to'ntarilishi arafasidagi o'zbek mehnatkashlarining og'ir hayoti va ma'rifat sari intilishini tasvirladi. Roman o'zining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari bilan 60-yillar o'zbek nasri ravnaqiga munosib hissa qo'shdi. M. Ismoiliy «Bizning roman» (1962), «Inson husni» (1969) va «Odamiylik qissasi» (1972), «Qizlar daftari» (1980), «O'zingdan ko'r» (1986) asarlarida yoshlar axloqi, oilada totuvlik va o'zaro hurmat masalalari haqida fikr yuritilgan.

U 1986 yil 5 mayda Toshkent shahri vafot etgan.

2023-09-09 15:30:27